

HUDUDLARDA TURIZM ORQALI BARQAROR BANDLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY MAZMUNI VA HOZIRGI HOLATI

Karimova Tursunoy Raxmonovna

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ishida hududlarda turizm sohasini rivojlantirish orqali barqaror bandlikni ta'minlash mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda turizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, yangi ish o'rinlarini yaratishdagi roli hamda aholi bandligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali barqaror bandlikni ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqiladi. Maqolada hududiy turizm salohiyatidan foydalanish asosida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi daromadlarini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: turizm, hududiy rivojlanish, bandlik, barqaror bandlik, turizm infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy o'sish, mahalliy resurslar, tadbirkorlik, turizm salohiyati.

ABSTRACT

This dissertation examines the mechanisms for ensuring sustainable employment through the development of tourism in regions. The research analyzes the impact of tourism on regional economic development, its role in creating new jobs, and its opportunities to increase employment among the population. In addition, the study develops mechanisms for ensuring sustainable employment through the development of tourism infrastructure, improvement of service quality, effective use of local resources, and support of entrepreneurial activities. The dissertation also provides scientific and practical recommendations aimed at strengthening economic stability and increasing population income through effective use of regional tourism potential.

Keywords: tourism, regional development, employment, sustainable employment, tourism infrastructure, service sector, economic growth, local resources, entrepreneurship, tourism potential.

So'nggi yillarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turizm nafaqat xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarkibiy qismi, balki iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sektori global miqyosda millionlab ish o'rinlarini yaratib, ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim rol

o‘ynamoqda. Turizmning rivojlanishi transport, savdo, ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli turizm sektori zamonaviy iqtisodiyotda bandlikni ta‘minlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5611-son Farmoni turizm sohasini rivojlantirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan muhim normativ hujjat hisoblanadi. Mazkur farmonda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirish, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish hamda turizm xizmatlari hajmini oshirish vazifalari belgilangan. Ushbu hujjat turizm orqali aholi bandligini ta‘minlash va hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida turizm iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida ko‘rsatilib, turizm sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada oshirish vazifasi belgilangan. Mazkur strategiyaga muvofiq, 2030-yilga qadar turizmning YAIMdagi ulushini 3,5 foizdan 7 foizgacha oshirish hamda xorijiy turistlar sonini keskin ko‘paytirish rejalashtirilgan. Bu esa turizm sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda turizm sektori so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Masalan, 2023-yilda mamlakatga 6,6 milliondan ortiq xorijiy turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 8,2 million kishiga yetgan. Bu esa bir yil ichida turistlar soni qariyb 1,6 million nafarga oshganini ko‘rsatadi. Turizm oqimining ortishi transport, mehmonxona xo‘jaligi, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib kelmoqda. Shu sababli turizm sektori aholi bandligini ta‘minlashda muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Turizm sektorining rivojlanishi hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy turizm markazlarida turizm infratuzilmasining rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, turizm qishloq hududlarida ham iqtisodiy faollikni oshirish imkonini bermoqda. Qishloq turizmi, ekologik turizm va gastronomik turizm kabi yo‘nalishlar mahalliy aholining turizm sektorida faol ishtirok etishiga imkon yaratmoqda.

Biroq turizm orqali barqaror bandlikni ta'minlash masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Turizm faoliyatining mavsumiyligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar turizm sektorida barqaror bandlikni shakllantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli hududlarda turizmni rivojlantirish orqali barqaror bandlikni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi holatlar maqola mavzusining ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini belgilaydi. Turizm sektorining rivojlanishi orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. Shu bois "Hududlarda turizm orqali barqaror bandlikni ta'minlash mexanizmlari" mavzusini tadqiq etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi bandligini oshirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Hududlarda turizm orqali barqaror bandlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasi xizmatlar iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat to'g'ridan-to'g'ri turizm xizmatlarida, balki transport, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, madaniyat, logistika va boshqa ko'plab tarmoqlarda ham qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi. Shu sababli turizm bandligi iqtisodiy adabiyotlarda odatda uchta ko'rinishda talqin qilinadi: to'g'ridan-to'g'ri bandlik (mehmonxona, gidlik, turagentlik, transport xizmatlari), bilvosita bandlik (oziq-ovqat yetkazib berish, qurilish, suvenir ishlab chiqarish) va induksiyalangan bandlik (turizm daromadlari orqali boshqa xizmatlarga talabning ortishi). Bu jihatlar turizmni hududlarda barqaror bandlikni ta'minlaydigan muhim iqtisodiy omilga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarga boy hududlarda turizm iqtisodiy faollikni oshiradi va aholi daromadlarini ko'paytiradi. Turizmning yana bir muhim xususiyati shundaki, u katta sanoat investitsiyalarini talab qilmaydi. Mehmon uylari, milliy taomlar oshxonalari, suvenir savdosi, gidlik xizmatlari yoki kichik transport xizmatlarini tashkil etish orqali mahalliy aholining o'zini o'zi band qilishi mumkin. Shu sababli turizm hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali barqaror bandlikni ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega.

2020 yil turizm sohasi uchun pandemiya sabab keskin pasayish davri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda mamlakatga turizm maqsadida kirgan xorijiy fuqarolar safarlari soni 1 504,1 ming nafarni tashkil etgan. Keyingi yillarda esa turizm oqimi bosqichma-bosqich tiklana boshladi. 2021 yilda bu ko'rsatkich 1 881,3 ming nafarga, 2022 yilda 5 232,8 ming nafarga, 2023 yilda 6 626,3 ming nafarga va 2024 yilda 7 957,2 ming nafarga yetdi.

Demak, 2020–2024 yillar davomida mamlakatga kiruvchi turistlar soni qariyb 4 barobardan ko‘proq oshgan. 2024 yilning o‘zida 2023 yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 20 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu esa turizm sektori pandemiyadan keyin tez tiklanayotganini ko‘rsatadi.

Turizm oqimining ortishi turizm infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish korxonalarining ko‘payishiga ham olib kelmoqda. 2020 yilda O‘zbekistonda 337 ta turistik firma faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 743 taga yetdi. Bu to‘rt yil ichida 120 foizdan ortiq o‘shishni anglatadi. Turistik firmalar tomonidan xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni ham keskin oshib, 2020 yildagi 212,3 ming kishidan 2024 yilda 1 972,9 ming kishiga yetdi. Shu davrda sotilgan turistik yo‘llanmalar soni ham bir necha barobarga oshgan. Bunday o‘shish turizm xizmatlari bozorida yangi ish o‘rinlari yaratilishi uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Turizm sohasidagi bandlik ko‘rsatkichlari ham ijobiy o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm bilan bog‘liq tarmoqlarda yuridik shaxslarda band bo‘lganlar soni 2020 yilda 190 814 nafarni tashkil etgan. 2021 yilda bu ko‘rsatkich 208 053 nafarga, 2022 yilda 214 613 nafarga, 2023 yilda 215 679 nafarga yetdi. 2024 yilda esa turizm tarmoqlarida band bo‘lganlar soni 249 764 nafarga yetib, 2020 yilga nisbatan qariyb 31 foizga oshdi. Bu turizmning mehnat bozorida ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi ham hududlarda bandlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. 2024 yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 2 383 ta mehmonxona va ularga o‘xshash joylashtirish vositalari faoliyat yuritgan. Ularda jami 38 075 ta xona va 79 469 ta o‘rin mavjud bo‘lgan. Shu yili mehmonxonalarda joylashtirilgan shaxslar soni 2 864,3 ming kishini tashkil etgan. 2023 yilga nisbatan mehmonxona va joylashtirish obyektlari soni qariyb 71 foizga oshgan. Bu esa turizm sohasida doimiy ish o‘rinlari soni ko‘payayotganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida turizm infratuzilmasi notekis rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim hududlar turizm bandligining asosiy markazlariga aylangan. Mehmonxona va joylashtirish obyektlari soni bo‘yicha Toshkent shahri 844 ta obyekt bilan yetakchi hisoblanadi. Samarqand viloyatida 361 ta, Farg‘ona viloyatida 280 ta, Buxoro viloyatida 250 ta mehmonxona va turar joy obyektlari mavjud. Joylashtirilgan turistlar soni bo‘yicha ham ushbu hududlar yetakchilik qiladi. Masalan, 2024 yilda Toshkent shahrida 1 267,1 ming kishi, Samarqand viloyatida 428,4 ming kishi, Buxoro viloyatida 267,2 ming kishi mehmonxonalarda joylashtirilgan.

Turistik firmalar soni ham hududlar kesimida asosan poytaxt va tarixiy markazlarda to‘plangan. 2024 yilda faoliyat yuritgan 743 ta turistik firmalarning 390 tasi yoki 52,5 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. Samarqand viloyatida 144 ta, Buxoro viloyatida 44 ta, Xorazm va Navoiy viloyatlarida 28 tadan turistik tashkilot

faoliyat yuritgan. Xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni bo‘yicha ham Toshkent shahri 1 252,5 ming kishi yoki jami hajmning 63,5 foizi bilan yetakchilik qilgan.

4.1-jadval

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi va xalqaro turistlar oqimining dinamikasi (2020–2025 yillar)

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xalqaro turistlar soni (ming)	504,1	881,3	232,8	626,3	957,2	561,9
Turistik firmalar soni (ta)	37	10	20	10	43	80
Joylashtirish vositalari (mehmonxona va boshqalar) soni (ta)	200	350	650	800	383	500
Mehmonxonalaridagi xonalar soni (ta)	5000	7000	1000	4000	8075	0500
Mehmonxonalaridagi o‘rinlar soni (ta)	2000	6000	4000	1000	9469	4000

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi – *Tourism and Recreation Development in Uzbekistan statistik to‘plami; UN Tourism (UNWTO) analitik hisobotlari; stat.uz rasmiy ma’lumotlari.*

Mazkur jadvalda 2020–2025 yillar davomida O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadvalda xalqaro turistlar soni, turistik firmalar soni, mehmonxona va joylashtirish obyektlari soni hamda ularning sig‘imi (xonalar va o‘rinlar soni) bo‘yicha ma’lumotlar jamlangan. Ushbu ko‘rsatkichlar turizm sohasining pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonini hamda infratuzilmaning kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Masalan, 2020 yilda xalqaro turistlar soni 1,5 mln atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024–2025 yillarga kelib bu ko‘rsatkich 8 mln.dan ortiqni tashkil etgan.

Jadvalda shuningdek turistik firmalar sonining 337 tadan 700 dan ortiq birlikka yetgani hamda mehmonxona va joylashtirish obyektlari sonining sezilarli darajada oshgani aks etgan. Bu jarayon turizm infratuzilmasining kengayib borayotganini va hududlarda turizm xizmatlariga talab ortayotganini ko‘rsatadi. Infratuzilmaning rivojlanishi esa o‘z navbatida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga va turizmning iqtisodiyotdagi rolini kuchayishiga xizmat qiladi.

Turizmning iqtisodiy ahamiyati xizmatlar sektoridagi ulushida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda O‘zbekistonda joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari hajmi 149,6 trillion so‘mni tashkil etgan va 2023 yilga nisbatan 11,8 foizga oshgan. Ushbu xizmatlar jami xizmatlar hajmining 22,4 foizini tashkil etgan. 2025 yil yanvar–noyabr oylarida esa xizmatlar hajmi 187,98 trillion so‘mga yetib, o‘shir sur‘ati 9,3 foizni tashkil etgan. Bu turizm bilan bog‘liq xizmatlar iqtisodiyotda muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur maqola ishida hududlarda turizm sohasini rivojlantirish orqali barqaror bandlikni ta‘minlash mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqot olib borildi. Tadqiqot jarayonida turizm sektorining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri, turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi hamda turizm faoliyatining aholi bandligini ta‘minlashdagi roli tizimli ravishda tahlil qilindi. Maqolada turizm sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish jarayonlariga ta‘siri hamda turizm orqali yaratilayotgan bandlik imkoniyatlari ilmiy asosda o‘rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, turizm sektori hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turizm rivojlanishi transport, savdo, umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon turizm bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatni kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, turizm sektorining rivojlanishi hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi va mahalliy aholining daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Maqola ishining muhim ilmiy natijalaridan biri turizm sektorining hududiy mehnat bozori bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida turizm rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda aholi bandligi ham yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Turizm xizmatlari ko‘rsatish hajmining ortishi xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi. Bu esa turizm sektorining hududiy bandlikni ta‘minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi turizm sektorining samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi turistlar oqimining ortishiga hamda turizm xizmatlari bozorining kengayishiga olib keladi. Shu sababli turizm infratuzilmasini rivojlantirish hududlarda turizm faoliyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-549, 2019 yil 18 iyul // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni: PF-5611, 2019 yil 5 yanvar.
3. Asadov, J. (2024). Hududlarda turizm tadbirkorligini rivojlantirish asosida bandlikni oshirish (Magistrlik maqolasi). Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
4. Ashurova, N. (2024). Turizm orqali hududiy bandlikni ta‘minlash mexanizmlari . Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
5. Bramwell, B., & Lane, B. (2023). Governance and sustainable tourism development. *Journal of Sustainable Tourism*.
6. Hall, C. M. (2024). Green jobs and sustainable tourism employment. *Journal of Cleaner Production*, 402, 136–150.